Shermatova Yaqutxon Sabirovna

Qo'qon Davlat Pedagogika Insituti

https://doi.org/10.5281/zenodo.7607803

https://explore.openaire.eu/search/publication?pid=10.5281%2Fzenodo.7607803

HARAKAT –TAYANCH APPARATINING MEXANIK SHIKASTLANISHLARI

Annotatsiya : Ushbu maqolada harakat –tayanch apparatining mexanik shikastlanishlari hamda muskullarda vujudga kelishi mumkun bo'lgan shikaslanishlari haqida malumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar : Skelet, suyak, muskul, sinish, chiqish, shina, immobilizatsiya, shikastlanish, jarohat.

Harakat -tayanch apparatining anatomiyasi va fiziologiyasi

Harakat -tayanch sistemasi suyak, muskul, pay va boylamlardan iborat bo`lib, ularning barchasi birgalikda bir qancha funktsiyalarni bajaradi. Jumladan:

- tanaga tayanch bo`lib xizmat qiladi,
- ichki organlarni himoya qiladi,
- mineral moddalar saqlanadigan joy bo`lib xizmat qiladi, hamda qon to`qimalarini hosil qiladi,
- issiqlik hosil qiladi,
- harakatlantirishda qatnashadi.

Qo`l va oyoq suyaklari tufayli yura olamiz, narsa ko`taramiz va boshqa harakatlarni bajaramiz. Qo`l panjasi va barmoqlarining mayda suyaklari,

masalan, yozishda zarur bo`ladigan aniq harakatlarni bajarish imkonini beradi. Oyoq panjalarining mayda suyaklari esa yurishda ko`maklashadi.

Suyaklarda mineral moddalar to`planadi, ilikda esa qon hujayralari hosil bo`ladi.

Tananing harakatchanligi muskul to`qimalarining qisqarishi va bo`shashishi hisobiga ta'minlanadi. Muskullar suyaklarga pay bilan mahkamlanadi. Muskul ishlaganida issiqlik hosil bo`ladi. Muskul saqlovchi qobiq sifatida xizmat qilib, suyak, nerv va qon tomirlar uchun himoya vositasi bo`ladi.

Miya nerv impulslarini jo`natib, muskullarga harakat qilish to`g'risida ko`rsatma beradi. Muskul faoliyati ixtiyoriy yoki g'ayriixtiyoriy bo`lishi mumkin. Miya muskulning g'ayriixtiyoriy harakatini, masalan, yurak, qorin pardasi va ichak faoliyatini avtomatik tarzda boshqaradi. Yurak, biz tomondan hech qanaqa ko`rsatma bo`lmasa-da, minutiga 60-80 marta qisqaraveradi. Muskullar, masalan, qo`l-oyoq muskullarining ixtiyoriy harakati ong nazorati ostida bo`ladi.**Skelet**

Skelet turli shakl va katta-kichiklikdagi 206 ta suyakdan iborat bo`lib, tana shakllanadigan qovurg'a (sinch)ni tashkil qiladi. Suyak - zich va mustahkam to`qima. Skelet hayotiy muhim ichki organlar va yumshoq to`qimalarni ehtiyot qiladi. Bosh chanog'i bosh miyani himoya qiladi. Qovurg'alar yurak va o`pkani himoya qiladi. Umurtqa pog'onasi orqa miyani saqlaydi.

Ba'zi suyaklar qizil qon tanachalarini hosil qilish va saqlash uchun xizmat qiladi. Suyak sinishi, odatda, og'riqli bo`lib, qon ketishiga olib keladi. Bunday qon ketish to`xtatilmasa, jabrlanuvchi hayotiga xavf tug'dirishi mumkin.

Suyaklar katta-kichikligi va shakliga ko`ra turlichadir. Ular shakli o`zgargan joyda mo`rtroq bo`lib, odatda, o`sha nuqtalardan sinadi.

Muskullar

Muskul - yumshoq to`qima. Insonda hammasi bo`lib 600 dan ziyod muskul bo`ladi. Ko`pchiligi skelet muskullari bo`lib, suyakka birikib o`sadi.

Muskullar, boshqa yumshoq to`qimalardan farqli ravishda, bo`shashishi va qisqarishi mumkin, bunda tana qismlari harakati ta'minlanadi. Miya nervlar orqali muayyan harakatni bajarishi to`g'risida muskullarga ko`rsatma yo`llaydi. Skelet muskullari ham suyak, nerv va qon tomirlarni himoya qiladi. Har tomondan kelgan muskullarning ko`pchiligi suyakka pay bilan qo`shiladi. Muskullar va ularning paylari bo`g'imlar orqali o`tadi. Bosh va orqa miya shikastlanishi, nervlar zararlanishi oqibatida muskullar faoliyatining boshqarilishini nazorat qilish buzilishi mumkin.

Bo`g'imlar

Bo`g'im ikki yoki undan ko`p suyak ulanadigan joyda bo`ladi. Ayrim bo`g'imlar bosh chanog'i singari bir turdagi strukturani hosil qilib, birlashib ketgan bo`lsa ham, ko`p bo`g'imlar harakatda bo`ladi.

Bo`g'imlarni boylamlar tutib turadi. Barcha bo`g'imlar muayyan harakat amplitudasiga ega. Bo`g'im o`zi uchun normal bo`lgan amplitudadan chetga chiqqan bo`lsa, bu holat ushbu bo`g'im cho`zilishiga yoki uzilishiga olib keladi. Boylamlar cho`zilishi yoki uzilishi natijasida bo`g'im beqaror bo`lib qoladi va bu mehnat qobiliyati yo`qotilishiga olib keladi. Beqaror bo`g'imlar osonlik bilan qayta shikastlanadi.

Tayanch-harakat sistemasi shikastlanishining

sabablari va turlari

Tayanch-harakat apparatining shikastlanishi keng tarqalgan holdir. Ular odatdagi ko`karish (momataloq)dan tortib, og'ir azob beruvchi sinish va chiqishgacha

o`z ichiga oladi. Bunday shikastlanishda ko`rsatiladigan birinchi yordam og'riqni kamaytirish hamda keyingi shikastlanishlarni bartaraf etishdan iborat bo`ladi.

Sinish, muskul va bo`g'in shikastlanishi, garchi, doimo og'riq bilan kechsa-da, juda kam hollarda jabrlanuvchining hayotiga xavf soladi. Biroq birinchi yordam ko`rsatilmasa, ularning oqibati jiddiylashib ketishi va hatto, umrbod nogironlikni ham keltirib chiqarishi mumkin. Tayanch-harakat sistemasi turli vaziyatlarda: yiqilganda, noqulay va bexos harakat qilganda yoki avtomobil halokati chog'ida shikastlanishi mumkin.

Tayanch-harakat sistemasi shikastlanishining to`rt asosiy turi mavjud:

• sinish,

• chiqish,

• boylamlar cho`zilishi yoki uzilishi,

• muskullar va paylar cho`zilishi yoki uzilishi.

Sinish - suyak yaxlitligining buzilishidir. To`la sinish va suyak bo`lak bo`lib singandagi yoki darz ketgandagi kabi chala sinish mavjud.

Ochiq sinishda jarohat mavjud bo`ladi. U qo`l yoki oyoqqa suyak sinishiga olib keladigan haddan tashqari nagruzka berilganda sodir bo`ladi. Singan suyak uchi terini yirtib, tashqariga chiqib qoladi yoki bironta buyum teri qoplamni teshib o`tib, suyakni sindiradi. Taxmin qilingan siniq atrofidagi yumshoq to`qimaning har qanday zararlanishi ochiq sinishdan darak beradi. Yopiq sinishda teri qoplami zararlanmay qoladi-ki, sinishning bunday turi ko`proq uchraydi. Ochiq sinish nisbatan xavfli, chunki unda jarohatga infektsiya tushirish yoki qon yo`qotish xavfi mavjud bo`ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. “Sanitariya nazorati to’g’risida”gi qonun. O’zbekiston Respublikasi Qonun

hujjatlari to'plami. –T.: 2006 y., 41-son.

2. "Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida"gi qonun. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami. –T.: 2007 y., 40-son.

3. "Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida"gi qonun. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. –T.: 2004 y., 25-son.

4. S.M. Ermatova. Hayot faoliyati xavfsizligi (Fuqaro muhofazasi)ni ta'lim texnologiyalari asosida o'qitish. Uslubiy qo'llanma. Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti. 2012. T. 163 b.

5. U.D.Murodova., S.M.Ermatova. Hayot faoliyati xavfsizligi (Yong'in xavf-sizligi). Uslubiy qo'llanma. T.: Nizomiy nomidagi TDPU. 2015. 46b.

6. С.О.Сафарова, М.Пулатходжаева и др. Медицина чрезвычайных ситуаций. Т.: ТГПУ им. Низами. 2016. 62 с.

7. Glades Road, Boca Raton. Fire safety manual. Florida. 2013.

Elektron ta'limning resurslari :

1. www.gov.uz
2. www.ziyonet.uz
3. www.mvd.uz
4. uz.bir.uz
5. www.bezopasnost strani.uz
6. www.terror.bezopasnost.ru
7. www.psixologia tolpi.ru

WORDLY KNOWLEDGE